

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek adabiyoti kafedrası

O'zbek filologiyasi yo'nalishi 3-bosqich "A" guruh talabasi

Homidova Nafisaning tayyorlagan

R E F E R A T I

Mavzu: "Sharq yulduzi" jurnalida 2006-2010- yillarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar (bibliografik ko'rsatkich va obzor)

O'qituvchi:

M.Sheraliyeva

Andijon-2016

**“Sharq yulduzi” jurnalida 2006-2010- yillarda chop
etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar (bibliografik
ko’rsatkich va obzor)**

Reja :

**1. *Kirish.* “Sharq yulduzi” jurnalida 2006-2010-
yillarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarga
umumiy tavsif.**

**2 “Sharq yulduzi” jurnalida 2006-2010- yillarda chop
etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarning bibliografik
ko’rsatkichi.**

**“Sharq yulduzi” jurnalida 2006-2010 yillarda chop etilgan
adabiy-tanqidiy maqolalar.**

Mustaqilligimizdan keyin barcha sohalar qatori badiiy adabiyotimiz ham rivojlanib, takomillashib bordi. O'z adabiyotimizga e'tibor kuchaydi, o'zligimizni angladik. Sobiq sho'ro hukmronligi davrida qoralangan, nohaq o'ldirilgan, ijodi oyoqosti qilingan dilbar ijodkor-adiblarimiz mustaqillik sharofati ila nomlari qayta tiklandi. Ularning adabiyotimizga qo'shgan ulkan hissalarini munosib taqdirlandi. Bu borada O'zbekiston diyorida tashkil etilgan, chop etilayotgan gazeta, jurnallarning o'rni beqiyos. Ayniqsa “Sharq yulduzi” jurnalining beqiyos ahamiyatini ta'kidlamasdan iloj yo'q. Adabiyotimizning yorqin va bizga shu kungacha no'malum bo'lib kelgan buyuk iste'dot sohiblari, adib, shoirlar haqida, o'lmas san'atimiz, so'nmas ohanglar to'g'risida yangi ma'lumotlar berib boriladi. Biz ko'zdan kechirgan, tanishib chiqqan ushbu jurnalning 2006-2010-yilgi sonlari mavzularning xilma-xilligi, adabiy jarayondagi eng dolzarb muammolar va bu muammolarni bartaraf etish usullari, bugungi va o'tmish adabiyotimiz holatini haqqoniy aks ettishi bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu jurnalning tanqid va adabiyotshunoslik ruknida ko'plab ijodkorlar, adabiyotshunoslar, tanqidchilar, shoir-adiblar turli mavzularda o'zining maqolalari bilan faol qatnashadilar, xilma-xil mavzulardagi ijod namunalari va tadqiqotlarini bizga taqdim etadilar.

“Sharq yulduzi”jurnalining 2006-2010 –yillardagi sonlariga nazar solsak unda o'zbek tanqidchiligi va uning bugungi kundagi ahamiyati rivoji va kamchiliklari,erishilgan yutuqlari haqidagi maqolalar juda ko'p.Bundan tashqari mumtoz adabiyotimiz va chet el adabiyoti, tarjimachilik,yangi yaratilayotgan asarlar,ular haqidagi baxs-munozaralar,buyuk yozuvchi va shoirlarimizning hayoti va ijodiga doir maqolalar ham o'rin olgan.

“Sharq yulduzi”jurnalining ushbu yillardagi sonlarida o'z maqolalari bilan bir qancha adabiyotshunoslarimiz va tanqidchilarimiz faol qatnashishdi.Xususan, Baxodir Rahmonov,Qozoqboy Yo'ldoshev,No'mon Rahimjonov,Yo'ldosh Solijonov, Nilufar Dilmurodova,Qurdosh Qahramonov, Xurshida Xamraqulova, Uzoq Jo'raqul,

Dilmurod Quronov, Gulchexra Imomova va boshqalar o'zlarining qiziqarli maqolalari bilan jurnalni boyitdilar.

Mazkur yillar oralig'ida chop etilgan maqolalar ichida jadidchi olimlarimiz hayoti va ijodini o'rganishga ham chuqur kirib borilgani bizda shukronalik xissini uyg'otmasdan qoldirmaydi, boisi mustaqillikdan avval ularni o'rganish ta'qiqlangani, ularning shaxsi qoralanganligi sababli adabiyotimiz qahramonlarini o'rganishning imkoni bo'lmagan edi. Mustaqillik sharofati bilan ularning nomlari oqlanib, ijodlarining asl mohiyatini ochish imkoni tug'ildi.

Ushbu yillardagi maqolalar tarkibida mumtoz adabiyotimiz vakillariga bag'ishlangan maqolalar ham talaygina ekanligi kishini quvontirmay qo'ymaydi. Xususan, Botir Oqbo'tayevning "Darvesh desam ulus uza shoh" nomli maqolasida Navoiyning tasavvufiy qarashlari, darveshlik axloqi, darveshlik axloqini qabul qilgan odil podshohlarni bir umr orzu qilganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Shuning uchun ham do'sti, podshoh Xusayn Boyqaroda aynan shu xislatlarni shakllanishiga harakat qilganligi ta'kidlanadi.

Sanjar Sodiqning "Tanqidchiligimizning mashaqqat yo'li" nomli maqolasida bugungi tanqidchilikdagi fikriy sayozlik yoki dalil-u mushohadalar ifodasining nomukammalligi, natijada ayrim mashxur shoirlar ijodining ulug'vorligi, so'z ishlatishdagi san'atkorning yuksakligi nihoyatda pasaytirilib, yerga urib yuborish holatlari haqida baxs yuritiladi.

Mazkur yillarda yana bugungi kunda yetishib chiqayotgan yangi ijodkorlarimiz hayoti va ijodi, yaratilayotgan asarlarning yutuq va kamchiliklari, yangi kirib kelayotgan janrlar, tanqidchilik, tarjimonlik soxasidagi yutuqlar o'z ifodasini topganlari borki ularni ta'riflab adog'iga yetib bo'lmaydi.

“SHARQ YULDUZI” JURNALI. 2006-YIL

1.Botir Oqbo'tayev. “Darvesh desam ulus uza shoh” Sharq yulduzi 2006\1

Maqolada Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlari, darveshlik axloqi, darveshlik axloqini qabul qilgan odil podshoxni orzu qilganligi aytib o'tiladi. Darveshlar olam boyligiga, rohat-farog'atlariga ruju qo'ymaslik olloxni dilda mustahkam saqlab halol mehnat bilan kun kechiruvchi qanoatli kishilardir. Muttaffakir shoir Alisher Navoiy yurt ravnaqi, xalq farovonligi, darvesh axloqini qalbida mujassam etgan odil podshohlar faoliyatiga bog'liq deb hisoblaydi. Shuning uchun ham do'sti Xusayn Boyqaroda aynan shu xislatlarni shakllanishiga harakat qiladi. Alisher Navoiyning ushbu darveshlik axloqini qabul qilgan podshoh haqidagi qarashlari sharq tafakkur olamini adolatli hukmdor to'g'risidagi yana bir insonparvar fikr bilan boyitdi.

2.Zokirjon Mamajonov.”O'xshatish asosidagi she'riy san'atlar” Sharq yulduzi 2006\1

Maqolada o'xshatish asosidagi she'riy san'atlar tashbeh, tajohuli orif haqida ma'lumotlar beriladi. Bu ikkala san'atning o'ziga xos xususiyatlari har ikkisinin mavjud risolalarda ma'naviy san'at deb yuritilishidir. Lekin bu o'xshashlik shakliy o'xshashlikda ham emas, muhimi ularning san'at hodisasiga aylanishida shakl va mazmun munosabatlariga ko'ra o'xshashlikning birlamchi me'zon ekanligi ko'rsatiladi.

3.Sanjar Sodiq.”Tanqidchiligimizning mashaqqat yo'li” Sharq yulduzi 2006\1

Maqolada bugungi tanqidchilikdagi fikriy sayozlik yoki dalil-u mushohadalar ifodasining nomukammalligi shu darajaga borib yetyaptiki, natijada ayrim mashxur shoirlar ijodining ulug'vorligi, so'z ishlatishdagi san'atkorning yuksakligi nihoyatda pasaytirilib, yerga urib yuborish holatlari haqida baxs yuritiladi.

4.Shafolat Xasanova. "Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoii va uning "Qush tili" asari" Sharq yulduzi 2006\2

Ushbu asar ramziy ishoralar orqali insonni komillikka boshlab,xaq taolo dargohiga olib boruvchi asar ekanligi ,unda solik yo'liga kirgan bandalarga tariqat yo'llari birma-bir sharxlanishi,zohiran dostonidagi hikoyatlar afsonaga o'xshab tuyulsada,mazmun jihatidan ular haqiqat yuzini ko'rsatuvchi hayotiy misol ekanligi haqida ma'lumot beriladi.Muallif ushbu dostonni yaratishda ko'plab asarlarni o'rganib chiqqanligi va ularning maqbul jihatlarini ijodiy o'zlashtirib olganligi,bu asarni adabiyotshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganish shuningdek,bu doston matnini ilmiy muomalaga kiritish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

5. Baxodir Rahmonov ."Ertak va zamon" Sharq yulduzi 2006\3

Maqolada bugungi kundagi ertak va zamon muammosining yechimi, ertak eposining abadiy barhayot g'oyalari yosh avlodni olijanoblikka,mehnatsevarlikka,mardlik va jasoratga, el-yurt ozodligi va hayotga muhabbat ruhida tarbiyalashga ko'mak berishi ko'rsatiladi.Ertakni o'ziga xos janr sifatida ushlab turuvchi yetakchi belgilari ,ertaklarning turlari haqida ma'lumotlar beriladi.

6. Zohidjon Sodiqov. "Yusuf Xos Hojib va Imom G'azzoliy" Sharq yulduzi 2006\3

O'rta sharq uyg'onish davrining ikki yirik mutaffakkirlari Yysuf Xos Hojib va Imom G'azzoliy bir-birlaridan hududiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan uzoq bo'lgani, bir-birlarini tanimagan holda o'zaro yaqin mavzularda qalam tebratgan.Deyarli bir davrda yashagan ikki alloma dunyoqarashlaridagi mushtaraklik ,avvalo, o'z zamonalari ko'p jihatdan bugungi kun va kelajak uchun ham eng ilg'or g'oyalarni ilgari surganlar .Imom G'azzoliyning "Ihyo-u ulumiddin" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonlari o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik, mos keladigan g'oyalar va tasvir uyg'unliklari qalamga olinadi.

7. Damin To'rayev. "Qaynoq hayot tasviri" Sharq yulduzi 2006\4

Taniqli yozuvchi Samar Nurning "Cho'l uyg'oq", "Durdona", "Beda xidi", "Narvon", "Seni sevaman hayot", "Bodom guli" va bir qator asarlari ushbu maqolada tahlil qilinadi. Uning hikoyalariga hayot tasviri, xalqimizning urf-odatlarini, ezgu niyatlarining puxta syujetda berilishi yozuvchini janrning taniqli vakillaridan biriga aylantirdi.

8. Boynazar Yo'ldoshev. "Qatrada quyosh yanglig'" Sharq yulduzi 2006\4

Maqolada qadimgi Qashqadaryo vodiysidan yetishib chiqqan buyuk allomalar, yozuvchilar, shoirlar yetishib chiqqanligi va hozirgi kunda ham yetishib chiqayotganligi haqida so'z boradi. Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", Ne'mat Arslonning "Adam vodiysi" kabi mashhur yozuvchilar ham shu vodiydin yetishib chiqqan.

9. No'mon Rahimjonov "Shoir- millatning ma'naviy muallimi" Sharq yulduzi 2006\5-6

Maqolada Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Farida Afro'z, Iqbol Mirzo, Azim Suyun, Ikrom Otamurod, Jumaniyoz Jabborov, Eshqobul Shukur va boshqa ko'plab mashhur yozuvchi va shoirlarimizning hayot yo'llari, ijodiga xos xususiyatlari xususida muloxazalar beriladi.

10. Yo'ldosh Solijonov. Foziljon Kiyikboyev. "Azaliy avlodlar mojarosi" Sharq yulduzi 2006\5-6

Maqolada badiiy asarlarimizda aks etgan inson muommasi, uning ruhiy olamining cheksizligi Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asarlari misolida jamiyatimizda uchraydigan ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, ularni hal qilish yo'llari, otalar bolalar o'rtasidagi o'ylashga majbur qiladigan muammolar so'z yuritiladi.

11. Xo'jaqul Muhammadiyev. "Orzigul" dostonida mifologik obrazlar. Sharq yulduzi 2006\5-6

Maqolada "Orzigul" dostonida uchraydigan mifologik obrazlarning doston syujet qurilmasidagi badiiy o'rni va vazifalarini tahlil qilish, ushbu obrazlarning asar genezisini tadqiq etishda muayyan ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi haqida so'z boradi.

"SHARQ YULDUZI" JURNALI 2007-YIL

1. Qozoqboy Yo'ldoshev. "Yangi o'zbek adabiyoti: ildizlari, belgilari, bosqichlari" Sharq yulduzi 2007\1

Yangi o'zbek adabiyoti millatning tafakkuri yangilana boshlagan davrda yuzaga kelgan va muayyan taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan o'ziga xos badiiy-estetik xodisadir. Bu adabiyotning paydo bo'lishi va taraqqiyot yo'lini izohlashda xalqimiz tarixidagi ulkan ijtimoiy voqealardan tashqari, millat tafakkuridagi o'zgarishlarni hisobga olib o'rganilganda u haqida xaqqoniy to'xtamga kelish mumkin bo'lishi haqida baxs yuritiladi.

2. Dilmurod Quronov. Xurshida Polvonova. "Mukammallik yo'lida" Sharq yulduzi 2007\1

Maqolada "O'tkan kunlar" romanining matni ustida va matnini sayqallash borasidagi ish ancha uzoq davom etganligi haqida so'z boradi. Abdulla Qodiriy nashrdan nashirga matnni badiiy jixatdan mukammallashtirib unga muayyan o'zgarishlar kiritib borgan. Jumladan, romanning 1933-yilgi nashri oldidan ham yozuvchi matnni ko'zdan kechirgan, unga zarur tahrirlar kiritgan. Agar shuni etiborga olinsa asos matn sifatida hozirgidek uning 1926-yilgi nashrini emas, balki adib hayotligida amalga oshirilgan nashrlarning so'ngisi 1933-yilgi nashrini qabul qilish to'g'riroq bo'ladi degan fikrlarni ilgari suradi.

3. Adiba Davlatova. “Gavhari noyob” ” Sharq yulduzi 2007\2

Maqolada Abdulla Avloniy, Muhammadsharif Soʻfizoda kabi jadid adabiyoti namoyondalarining asarlari tahlil ostiga olinadi. Agar dunyo goʻzali boʻlsa-da u odobli, tarbiyali, ilimli boʻlmas ekan, u qiz zamonaviy emas, yaʼni zamonaga mansub emas. Soʻfizodaning ushbu estetik ideal qahramoni, avvalo, ana shunday fazilatlar asosida kamol topmogʻi lozim edi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy –estetik ideal jadid adabiyotining namunalarida poetik masalalarning bir yoʻnalishi sifatida namoyon boʻladi.

4. Baxodir Rahmonov. ”Anʼanaviy folklor muammolari” ” Sharq yulduzi 2007\2

Bugungi kunda xalq baxshilari, latifagoʻylari, askiyachilari, qiziqchilari, masxarabozlari, ularning hayotihanda ijodi haqida, shuningdek, navroʻz, gul, qovun sayli, koʻpkari, kurash musobaqalarining oʻtkazilishi toʻgʻrisida ham ilmiy-ommabop yoki hujjatli filmlar yaratish chuqur ilmiy-maʼrifiy ahamiyatga ega. Fan-texnika va madaniy taraqqiyot anʼanaviy folklor rivojiga qanchalik monelik qilmasin, anʼanaviy folklor jamoalarini saqlab qolish hamda ularni yangi vositalar asosida roʻyobga chiqarishga katta imkoniyatlar mavjud.

5. Noʻmon Rahimjonov. ”Qalb koʻzini ochgil” ” Sharq yulduzi 2007\2

Maqolada Abdulla Oripov sheʼrlari, uning talqiniga koʻra bandaning oʻz-oʻzini anglashi, bu odamiylik xislatlari maʼnosini uqishi, mohiyatini tushunishi va tiriklik badalida inson topgan, axtargan, qadrlagan xaqiqatlar magʻzidir. Shu boisdan ham shoir takidlaganidek, oʻz-oʻzini idrok etish –bu tangri taoloni bilish demakdir. Abdulla Oripovning lirik qahramoni shariat ahkomlarini ado etish barobarida, ruhan poklanishga va Qodir egam nazariga moyil. Buning uchun u maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni oʻz shaxsida shakllantirishga, kamol toptirishga davat etadi.

6. Abdusamad Mamayusupov .Samarqand baxshichilik maktablari kecha va bugun. Sharq yulduzi 2007\3

Samarqand xalq og'zaki ijodining tomirlari qadimiy teranlikka ulangan makonlardan biridir .Viloyat xududlarida turli davrlarda ajoyib xalq baxshilari yetishib chiqqan va ular barakali ijod qilganlar.Ayniqsa,Ergash Jumanbulbul og'li,Fozil Yo'ldosh og'li kabilaro'z ijod mahsulotlarining boyligi,mavzularining serqirraliligi,rang-barangligi bilan ajralib turadilar.Samarqand baxshichilik maktabi an'analarini yanada kengroq o'rganish , ulardan o'sib kelayotgan yosh avlodni buyuk o'tmish tariximiz an'analariga sodiqlik,mehr –oqibat ,o'zaro xurmat,vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanish ,buning uchun xalq dostonlari tilining lug'atlarini tayyorlab nashr ettirish ,ularni maktab darsliklariga to'laroq kiritish katta ahamiyatga ega.

7. Abdurashid Abdurahmonov .Qadimiy shaharning boy adabiyoti . Sharq yulduzi 2007\3

Maqolada qadimdan Samarqanddan buyuk olim-u fuzalolar ,shoir-u ulamolar yetishib chiqqani va bugungi Samarqanddagi adabiy muhit tarixiy-adabiy an'ana mash'alasi hamisha porloqligidan nishona beradi.Eng muhimi,Samarqandda adabiy maktabni shakllantirish va jonlantirish,istedodli ijodkorlarni topish va ularni adabiyot maydoniga olib kirishdek ulug' maqsadni amalgam oshirishga yo'naltirilgan katta imkoniyatlar borligi aytiladi.

8. Saydulla Mirzayev .Yangi adabiyotning yaratilish yo'llari. Sharq yulduzi 2007\4

Maqolada mamlakatimizda mustaqillik davrida yangi hayot bilan birga yangi adabiyot ham yaratilganligi haqida so'z boradi.Yangi adabiyotning eng muhim yutug'I shu bo'ldiki ,bu davrda o'zbek adabiyoti hayotni tasvirlashda avvalgi cheklash-chegaralashdan qutildi.Natijada barcha janr va turlarda muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi.Adabiyotimiz yangi mavzular , yangi g'oyalar ,yangi obrazlar ,yangicha talqin va tasvirlar bilan boyidi

9. Abdulla Axronqulov.Uyg'unlashtiruv san'ati. Sharq yulduzi 2007\4

San'atning eng muhim turi bo'lgan badiiy adabiyot borliqdan ,inson hayotidan oziqlanib ,unga estetik munosabat tarzida vujudga keladi.Chindan ham ijtimoiy hayotning estetik tabiati juda ham boy .Unda go'zallik,xunuklik,komillik, fojeaviylik, quvonch, mashaqqat ham juda ko'p.Yozuvchiga ularni tiyran nigoh bilan ilg'ay olish va umumlashtirish iqtidori zarur."Daxolik-uyg'unlashtirish va ifodalay olish istedodidir"-degan edi mashxur rassom Delaktura.

10. Begali Mo'minov.Jadid adabiyotida bosh qahramon masalasi. Sharq yulduzi 2007\4

Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush"dramasi, Cho'lponning "Qurboni jaholat" "Do'ktor Muhammadiyor",Hamzaning "Yangi saodat",Fitratning "Munozara","Sayyoh hindi" asarlaridagi bosh qahramonlarining o'ziga xos jixatlari taxlil qilinadi.Bu asarlarni umumlashtiruvchi jixat ularning hammasiga bosh qahramon sifatida ziyoli obrazning berilishidir. Jadid yozuvchilar millat taraqqiysi yo'lida xarakat qilgan.Uning ertasi haqida qayg'urgan yangi tipdagi ziyolilarni bosh qahramon qilib oladilar.

11. Davron Mahmudov.Hofiz ad-din an-Nasafiy. Sharq yulduzi 2007\4

Maqolada xozirgi Qarshi deb ataladigan Nasafdan yetishib chiqqan Abu Barokat an Nasafiyning hayoti haqida ma'lumotlar beriladi.Uning ilmiy asarlari fiqh qonun-qoidalariga,qur'on tafsiriga bag'ishlangan asarlari uning naqadar chuqur bilim ,ilm-u ma'rifat sohibi ekanligini ko'rsatadi.Uning qanchalik qiyin sharoitda yashashiga qaramay ilmga chuqur ihlos bilan yondashib ,uning darajasini baland ko'targan allomadir.

12. Xurshida Xamraqulova. "Ruhiyat olamining estetik talqini" Sharq yulduzi 2007\5

Maqolada Nazar Eshonqul va Zulfiya Qurolboy qizining asarlari taxlil qilinadi. Bu ikki yozuvchining asarlarida fojiaviy ruh ustuvorlik qiladi. Bizning

qarashlarimizda o'lim bilan bog'liq hodisalar inson ko'nglida noxush taasurotlar uyg'otsa-da, yashashdan maqsad nima ekanligini anglaganlar uchun o'lim mutloqo yo'q bo'lish emas balki abadiy dunyo uchun robita ekanligi ularning asarlarida qayta-qayta ta'kidlanadi.

13. Nafas Shodmonov. Tarixiy mavzudagi adabiy manba. Sharq yulduzi 2007\5

Ushbu maqolada o'zbek muntaz adabiyotining namoyondasi Muhammad Rizo Ogahiyning "Shoxid ul- iqbol" asarining yaxshi o'rganilmaganligi, istiqloq sharofati tufayligina bir qator adabiyotimizning nodir namunalari qatorida bu asarni ham manbaalarga asoslangan holda keng ko'lamda ilmiy va amaliy o'rganish imkoniyatiga ega bo'linganligi qalamga olinadi.

14. Nilufar Dilmurodova. "Badiiy so'z jozibasi" Sharq yulduzi 2007\5

Maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Beozor qush qarg'ishi" hikoyalar to'plamidan joy olgan "Mahzuna", "Jim o'tirgan odam", "Jimjixonaga yo'l", "Qor odam", "Jajman", "Yetti qavat" va boshqa hikoyalarni ko'plab hikoyalari haqida muallif o'z fikr mulohazalarini beradi.

15. Safo Matchonov "Bolalar adabiyoti san'atmi yoki tarbiya" Sharq yulduzi 2007\6

Maqolada umumadabiyotimizning bir qismi bo'lgan barcha zamon va makondagi ayri-ayracha yashaydigan bolalar adabiyoti haqida so'z boradi. Jamiyat hayotidagi yangilanishlar bolalar adabiyotida ham o'z ifodasini topishi bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bugungi kunda yaratilayotgan asarlar bolalarning kitobxonlik borasidagi ma'naviy axloqiy ehtiyojlarini qondiradimi degan savolga javob beriladi.

16. Islomjon Yoqubov. Millat gulshaniga qo'ngan andalib Sharq yulduzi 2007\6

Maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub "Yangi saodat" romanining yutuqlari va kamchiliklari haqida fikr yuritiladi. Roman nihoyasidagi

voqea hodisalar rivojida hech qanday ziddiyat ko'rinmasligi bu esa g'oyaviy badiiy zaiflik, yuzakilik, bir qadar sun'iylik bo'y ko'rsatishi kamchilik sifatida ko'rsatiladi.

17. Ishoq Jabborov. “Bir gavhar bor joningizda” Sharq yulduzi 2007\6

Abdulla Oripov she'riyati badiyatining o'ziga hos xususiyatlari haqida mulohazalar yuritiladi. Uning poetik lug'ati nihoyatda boy. Uning she'rlarida xar gal yangi yangi ma'nolarni anglatish barobarida yana oxorli hissiy rang-baranglik va teranlik, serqatlam mazmundorlik kasb etishi haqida so'z boradi.

18. Mahkam Mahmud. Gomer olami Sharq yulduzi 2007\6

Maqolada Gomerining “Iliada” va “Odisseya” asarlarida tasvirlangan Troya urushi ijodiy to'qimami yoki tarixda shunday voqea bo'lganmi degan savolga javob beriladi. Gomer o'z dostonlarida bo'lib o'tgan voqealarni hamda bo'lish ehtimoli bo'lgan voqealarni va qahramonlarni ularning xarakterini yoritganligi haqida bahs yuritiladi.

“SHARQ YULDUZI” JURNALI 2008-YIL

1. Ho'jaqul Muhammadiyev “Orzigul dostonida saj san'ati” Sharq yulduzi 2008\1

Maqolada Islom shoir Nazar o'g'lining Orzigul dostonida qo'llanilgan saj san'ati na'munalari yoritib beriladi. Asar voqealari qahramonlari tug'ilishidan boshlab asar yakunigacha saj san'ati yordamida bayon qilinadi.

2. Muhammadjon Holbekov. Marl va Shekspir: Ikki taqdir hikoyasi Sharq yulduzi 2008\1

Maqolada jahon adabiyoti klassiklari sanalgan marl ova Shekspir merosi atrofida bo'layotgan bahslar ularning ijodiy faoliyati haqida so'z boradi. Bu adiblarning birinchisi ijodida Amir Temur siyomosi ilk marta badiiy talqin qilingan bo'lsa o'zbek teatri ikkinchisining asarlarida sahnalashtirilib katta shuhrat topganligi

shunday ekan ularning merosini, badiiy mahorat qirralari yanada chuqurroq o'rganilsa maqbul bo'ladi.

3. Nilufar Hamidova. Badiiy tasvir va ekranii talqin. Sharq yulduzi 2008\1

Maqolada o'zbek milliy madaniyatimizning noyob durdonlaridan sanalgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani badiiy mahoratining cho'qqisi sifatida nafaqat adabiyotimizning balki milliy teatr va kino san'atimizni hali uzoq bezab turishi haqida baxs yuritiladi va ushbu asar asosida olingan kinodagi bazi kamchiliklar haqida mulohazalar beriladi.

4. Abdug'ofur Rasulov. Ijodiy o'zlik sari yo'l. Sharq yulduzi 2008\2

Maqolada o'zbek xalq shoiri Anvar Obidjonning o'zbek adabiyotida alohida o'rni uning o'ziga xos uslubi, qarashlari, qahramonlari hususida so'z boradi, uning shoirlarimizdan Fitrat cho'lpon Tog'ay Murod va boshqalarga atab yozgan bag'ishlovlari haqida muloxazalar beriladi.

5. Poshshoxon Kenjayeva. Hikoyada qahramon ruhiyati tasviri. Sharq yulduzi 2008\2

Ushbu maqolada iste'dodli adiba Salomat Vafoning "Qora beva" hikoyasi tahlil qilinadi. Uning hikoyalarida hayotning achchiq zarbalari, turmushning ayovsiz sinovlari natijasida shaxsligi, ma'naviy olami imtixonidan o'tayotgan zamondosh insonlar hayotini ko'rsatishi haqida so'z yuritiladi.

6. Tolibjon Ro'ziboyev. So'z shavqi .Sharq yulduzi 2008\2

Maqolada Hoja Axror Valiy xazratlarining "Tabarruk risolalar" to'plamidan joy olgan ruboiylarining tarjimasidagi farqlar solishtiriladi, tarjima qilishda shoshma shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmasligi, agar tarjimada xatolikka yo'l qo'yilsa asar mazmunining butunlay boshqacha tarzda talqin etilishi haqida fikr beriladi.

7. Nafas Shodmonov. Tarixnavislik: manbalar, qirralar. Sharq yulduzi 2008\2

Maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning “Shohid ul-iqbol” asarini tarixiy nasrmi yoki agiografiya ,logografiya janrlaridan qaysi biriga kirishi hususida so’z boradi. Va bunday asarlar turkumini tarixiy –adabiy nasr deb tushunish kerakligi to’g’risida ma’lumotlar beriladi.

8.No’mon Rahimjonov.Qalb ma’rifati Sharq yulduzi 2008\3

Maqolada Safar Barnoyev ijodi misolida xozirgi bolalar adabiyotining xotira kanoralari kengaydi.Ma’naviy intellektual hamda axloqiy takomil ildizlariga ,suv ichuvchi buloqlariga e’tibor qiziqish teranlashdi.Avtobiografik yo’nalish xissiy-tafakkur tarbiyasida alohida mavqe kasb etadi.Bolalik taqdiri yangilanayotgan mustaqil jamiyatdagi bolalar dunyosining o’zak mag’zi ,mazmuni bo’lib qoldi.

9.Qozoqboy Yo’ldoshev.Teranlik. Sharq yulduzi 2008\3

Tog’ay Murod millat ahlining og’zaki so’zlashuvda qo’llaniladigan ko’plab nutq unsurlarini yozma adabiyotining ifoda vositasiga aylantirdi .Adib jonli tildagi so’zlarni bir chetdan yoppasiga o’zlashtiravermaydi,balki badiiy vaziyat talablariga muvofiq kelgan ,personajlar ruhiy xolatiga mos tushadigan so’z-u iboralarnigina adabiyot olamiga olib kiradi.Tog’ay Murod asarlarida hayot aks etadi.Adib qahramonlari yaxshiliklari azaliy bo’lgan odamlardir.Shu boiskim uning o’ziga xos badiiy yaratqlarining yo’li uzoq bo’lg’ay.

10. Nargiza Shoaliyeva. Barcha yo’llar haqda birlashur. Sharq yulduzi 2008\3

Maqolada Suhrob Sipehriy ijodi ,u yangi mistik g’oyalar ifodachisi, so’fiyona qarashlarining an’anaviy chegaralarini yorib ,inson komilligining yangi qirralarini namoyon va uni zamonaviy talablar bilan uyg’unlashtirgan shoirdir .Uning ijodida din va diniy qadriyatlarga munosabat masalasi muhim o’rin tutadi.Shoir nazarida din va diniy e’tiqod insonning ma’naviy ehtiyojini qondira oladigan ruhiy vosita.

11. Boynazar Yo'ldoshev.Barot Yarashev."Istiqlol shukhi bilan" Sharq yulduzi 2008\4

Maqolada Abdulla Oripovning istiqlool davri she'riyati va uning lirik qahramoni zamondoshlarimiz ruhiyatida sodir bo'layotgan yangilanishlar jarayonini yangicha tamoyillar bilan aks ettirgani bilan e'tiborga loyiqligi u she'riyatga yangi yo'nalishdagi nafasni olib kirgani haqida so'z yuritiladi.

12. Yo'ldosh Solijonov. Nasrimiz kamoloti: An'ana va yangiliklar. Sharq yulduzi 2008\4

Maqolada so'ngi yillar o'zbek nasrining muhim xususiyatlaridan biri muallif va personaj nutqlarining o'zaro chatishuvi, ya'ni ikki ovozli nutqning ustivor tarzda qo'llanilayotganligi to'g'risida mulohazalar beriladi.

13. Fayzulloxon Nabiyeu "Barchadin insonni sharif aylading". Sharq yulduzi 2008\5-6

Olam borliqda inson insondan aziz insondan mukarram zot yo'q. Hayotdan murod uning o'zligini anglashi. Insonning o'zligini oliy xilqat ekanligini anglashi buyuk ne'mat, baxt. Navoiy merosi xususan "Hayrat ul Abror"i ayni fazilatlarini anglatishi bilan abadiy bo'lib qolaveradi.

Barchasini garchi latif aylading

Barchadin insonni sharif aylading

14. Gulchehra Imomova. O'zbek hikoyalarida inson an'anaviy sathidagi badiiy uyg'unlik. Sharq yulduzi 2008\5-6

Hikoyada insof va andishaga to'liq soddalik o'zbek harakterining yetakchi hislati va bu hislat esa uzoq ajdodlardan o'tib kelayotgan barqaror an'ana ekanligiga urg'u beriladi. Adib an'analar sathidagi badiiy sintez uchun xalqimizning o'tkinchi muvaqqat hislatlariga emas balki hech qachon o'lmaydigan fazilatlariga tayanib ish ko'radi. Sintezning ushbu satxi kishilarni ma'naviy jihatdan yuksalishlarida muhim o'rin tutishini anglatadi.

15. Nilufar Dilmurodova “Ruhiiy olam tebranishlari”. Sharq yulduzi 2008\5-6

Xurshid Do'stmuhammadning “Bozor” romanida ikki qutbda ezgulik va yovuzlik o'rtasida kechadigan ziddiyatli ruhiy kurashlar va badiiy estetik mativlar bo'rtib ko'rinadi. Go'zallik, e'tiqod, kitob va muhabbat, poklik va halollik, olamu odamlarni manfurlik hamda qabohat changalidan degan dolzarb estetik ideal roman mag'ziga singdirib yuborilganligi, ayniqsa, taxsinga sazovor.

“SHARQ YULDUZI” JURNALI 2009-YIL

1. Hakimjon Karimov. Yangi yo'nalishdagi romanlar xususiyati. Sharq yulduzi 2009\1

Maqolada yangi yo'nalishdagi romanlar odatdagi an'anaviy ijod mahsuliga o'xshamasligi birgina Omon Muhtorning “Ko'zgu oldidagi odam” misolida isbot qilingan. Unda ijodkorning olam va odam xususidagi konsepsiyasi qahramonlar ongi yo'nalishida o'z ifodasini topadi.

2. Yusuffjon Hamdamov. Matbuot va zamonamiz qahramonlari obrazi. Sharq yulduzi 2009\1

Maqolada bugungi kunda matbuotda chiqayotgan asarlardagi zamonamiz qahramonlari haqida fikr muloxazalar bildiriladi. Hususan H.Eshonqulovning “Mehnatdan topilgan xazina” ocherki haqida so'z yuritiladi.

3. Pardaboy Nurjonov. Mustaqillik davri Qoraqalpoq nasrining rivojlanish yo'nalishlari. Sharq yulduzi 2009\1

Maqolada mustaqillik davrida qoraqalpoq nasriga avval qo'l urilmagan mavzular, g'oyalar kirib kelganligi, xalq tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari yaratilganligi, qahramon harakterini yaratishda avvalgi qotib qolgan qoidalardan qutilishda yangi janr va uslublarni egallashda ma'lum yutuqlarga erishganligi haqida so'z boradi.

4. Roziya Hobohunova. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi. Sharq yulduzi 2009\1

Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", "Qidiruvdagi qiz" asarlari, ulardagi voqealar rivoji, oils ovullarda umrguzaronlik qilgan, shaxarlarga baxt izlab kelgan qahramonlarning turfa qismatlari, yashash uchun kurashishlari haqida so'z boradi.

5. Salima Mirzayeva. Hamid Olimjon ijodida ertakona syujet. Sharq yulduzi 2009\2

Hamid Olimjon butun ijodi davomida xalq og'zaki ijodi na'munalaridan ijodiy foydalangan. Uning so'ngi paytlarda yozgan "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg" dostonlari batamom xalq ijodiyoti ta'siri ostida xalq dostonlarining tili shakli, uslubi xatto mundarija o'xshashligi bilan mo'l-ko'l sug'orilgan. Bu esa shoirning nafaqat xalq og'zaki ijodiga sodiq targ'ibotchisi ekanligini, shuningdek uning badiiy yo'sindagi ifodachisi ekanligini ham bildiradi.

6. Qurdosh Qahramonov. Absurd faqat ma'nisizlikmi? Sharq yulduzi 2009\2

Modernizmning mantiqiy davomi deb qaralgan absurdizm, ekzistensializm, posmodernizm singari oqimlarning mazmun mohiyati, o'zbek adabiyotida ushbu oqimlarga xos jihatlarning mavjudligi va ayni shu xususiyatlari tufayli o'zbek nazri uslubiy rang -baranlikka erishayotgan o'tgan asrning to'qsoninchi va yangi asrning dastlabki yillarida qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Bu esa o'zbek tanqidchiligining metodologiyasi boyib, rang baranglik kasb etayotganligi, uning tubdan yangilanayotganligidan dalolat beradi.

7. Yo'ldosh Solijonov. Munira Qo'qonova. Uyg'onish va uyg'otish istagi. Sharq yulduzi 2009\2

Usmon Azim she'rlari xayot xaqiqatini, ko'ngil og'riqlarini aks ettiradi. Shoir faqat muhabbat haqidagina yozmaydi, balki ijtimoiy hayot, dolzarb mavzular hususida ham qalam tebratadi. Usmon Azimning mudroq ko'ngillarni uyg'otish

istagida hamisha rost so'zga suyanib qalam tebratadi. Shuning uchun ham shoir she'rlari o'quvchi qalbiga o'rnashib bormoqda.

8. Tohir Shermurodov. Yolg'onning sha'riy va she'riy ilinji. Sharq yulduzi 2009\2

She'riyatning yolg'oni sha'riyat hukmi ila badarg'a etilgan yomon yolg'onlar emasdir zero, botil narsalarga o'z hududidan panoh bermoqqa she'riyatning ham sha'riy huquqi yo'q. Umuman yolg'on so'z san'atiga nisbat berish bermaslik, uni qusr yoki fazilat bilish bilmaslik, atama maqomida qoldirish-qoldirmaslik masalasi qay darajada qaramang, katta muammo bo'lib chiqavermaydi.

9. Marg'uba Mirqosimova. "Ijodkor shaxsi va badiy uslub" Sharq yulduzi 2009\3

Salomat Vafoning "Ovvoraning ko'rgan kechirganlari" romanida tasirchan va ishonarli uslubda tasvirlangan asarda ayol dunyosidagi ziddiyatlar tasirchan va hayotiy tasvirlangan. Salomat Vafo ayol dunyosi qalbining sirlari, aslida oddiygina bir tuyg'u bilan bog'liq ekanligi shu hisni butun vujudi orqali to'liq his qilish uchun u har nimaga har qanday azobga, qismatga rozi ekanligi, baxt kuyida ovoraning ko'rgan kechirganlari orqali ifodalashga harakat qilgan. Bu shubxasiz bugungi o'zbek adabiyotida hususan, nasrda inson qalbini yangi jihatlar nuqtai nazaridan tasvirlash namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

10. Qurdosh Qaxramonov. Tushunish tamoyili Sharq yulduzi 2009\3

Abdulla Qaxxorning "Sarob", "Sinchalak", "O'g'ri", "Daxshat" asarlari taxlil qilinadi. Abdulla Qaxxor yorqin istedod sifatida o'zbek adabiyotining badiy mukammal psixik jihatdan teran, o'lmas asarlar bilan boyitdi. Ayni chog'da Abdulla Qaxxor xushyor dunyoqarash sohibi va o'tkir intuitiv ijodkor tarzida zamonadagi siyosiy- ijtimoiy o'zgarishlarni nozik his qildi va asarlarning mohiyatiga buni mohirlik bilan singdirib yubordi. Shu bois Abdulla Qaxxor ijodi to'g'risida ziddiyatli qarashlarning vujudga kelishini tabiiy bir hol sifatida qabul qilish kerak.

11.Xurshida Xamroqulova.Talqin qirralari. Sharq yulduzi 2009\3

Maqolada qadimgi bitiktoshlarimiz,xususan,O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi insonning tangriga e'tiqodi ,bitiktoshlarning asosiy mavzusi ,jang-u jadal,vatanparvarlikdan iborat bo'lsa ham,o'limga munosabat qayg'uli xolatda va alohida tarzda ifoda etiladi.Masalan, Kultegin bitiktoshining matni Kulteginning vafoti ,motam marsiyasi bilan tugashining o'zi ham o'lim insoniyatga sinovlarning yakuni va abadiy hayotning boshlanishi ekanligini yodga soladi.

12.Ilyos Ismoilov.Asar qimmatini oshiruvchi vositalar. Sharq yulduzi 2009\3.

Maqolada asar qimmatini oshiruvchi vositalardan biri –epigrafa haqida ma'lumot beriladi.Epigrafa ko'pchilik nazariyotchilar tomonidan har xil talqin qilinadi. Ba'zilar uni “old so'z “ deyishsa , ba'zilar esa “asar g'oyasi” deyishadi.Epigrafaning asosiy vazifalaridan biri asarda sochilib yotgan aql ,bilim yo'g'dularning umumiy va asosiy jixatlarini jamlab ,o'quvchilarning ongida “jonli tarzda “ shakllantirishdan iborat .Shuning uchun ham epigraf asar qimmatini oshiruvchi vositadir.

13.Jahongir Rahmon.” Shoh Edip ”da inson fojeasi. Sharq yulduzi 2009\3

Buyuk yunon dramaturgi Sofokl o'zining “ Shoh Edip” tragediyasini bundan 2500 yil muqaddam yaratgan . Asarni o'zbek tiliga atoqli shoir va yozuvchi Asqad Muxtor o'g'irgan .Mazkur asar o'zining shakli va mazmuni jixatidan o'sha davr yunon adabiyotida keng tarqalgan va tragediya yo'nalishida yaratilgan asarlardan ham ko'p ham farq qilmaydi.So'fokl o'zining “Shoh Edip tragediyasi”da taqdirga yozilgani ro'y bermasligi mumkin emas degan g'oyani ilgari suradi.

14.Nuriddin O'ktam .Serqirra ijod sohillari .Sharq yulduzi 2009\3

Toxir Malik detektiv ,ma'rifiy ,xajviy va fantastik janrda barakali ijod qilib kelgan adiblardan. Adib asarlarida sof insoniy fazilatlar, bir-biriga bo'lgan mehr sadoqat, oqibat,muhabbat,sofdillik kabi har bir odamda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan go'zal xislatlarni mohirona talqin qilishga uringan va bunga erishgan ham

Fantastik asarlar ham didaktik asarlar bilan bir qatorda insonlarni sofdillikka ezgulikka chorlaydi. Buni biz Toxir Malikning birgina “Devona” nomli fantastik asari misolida ko’rishimiz mumkin.

15.Oxunjon Safarov.”To tonggacha so’ylasam ertak” Sharq yulduzi 2009\4

Maqolada Hamid olimjon ijodida uchraydigan xalq og’zaki ijodiga xos unsurlar xususida so’z boradi. Xususan uning “Lola”, “Vatan” “Ona va o’g’il”, “Xulkarning she’ri”, “Samalyot” she’rlarida uchraydigan xalq og’zaki ijodiga doir unsurlar tahlil qilinadi.

16.No’mon Rahimjonov. “Olov bilan olov qo’shilsa” Sharq yulduzi 2009\4

Maqolada “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan “Yoshlar kitobi 2008” majmuasiga jamlangan asarlar navqiron avlodning salohiyatini ma’naviy – intellektual hamda axloqiy madaniyatini ko’rsatuvchi mo’jaz ko’zguchalar ekanligi to’g’risida muloxazalar beriladi.

17.Dilrabo Quvvatova. Dostonchilikdagi uslubiy izlanishlar. Sharq yulduzi 2009\4

Maqolada Eshqobul Shukurning Bahouddin Naqshbandga bag’ishlangan tarixiy-tasavvufiy mavzudagi “Naqshband” Qutlibeka Rahimboevaning “Tavba”, Ikrom Otamurodning 90-yillarda yaratgan “Uzoqlashayotgan og’riq” kabi dostonlarining tarbiyaviy ahamiyati xususida so’z boradi.

18.Nazirjon Nazarov. “Murodim shul edi” Sharq yulduzi 2009\4

Maqolada Charxiy va Chustiy g’azallaridagi o’ynoqilik, shirinlik, musiqiylikning yetukligi, lirizmning kuchliligi, falsafaning chuqurligi haqida so’z boradi. Charxiyning “Keldim” radifli g’azali tahlil qilinadi.

19.Mo'min Xoshimjonov. Mashrab siymosining badiiy talqini. Sharq yulduzi 2009\5-6

Maqolada atoqli adib Shuhrat uzoq yillar mobaynida Mashrabning hayoti va ijodini chuqur o'rganganligi va Mashrab haqida "Mashrab" nomli roman yozganligi, bu roman shoir shaxsiyatini, uning bolalik, o'smirlik, davrini yorituvchi asar ekanligi haqida so'z boradi.

19.Hafiz Abdusamadov.Qalb gavhari. Sharq yulduzi 2009\5-6

Maqolada Odil Yoqubovning Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag'ishlab yozilgan "Fotih muzaffar yoxud parivash" asari haqida so'z boradi. Ushbu drama maqsadga olingan mavzu doirasidagi jiddiy va munosib asar ekanligi ta'kidlanadi.

20.Lola Azimova.Kompozitsiya va syujet . Sharq yulduzi 2009\5-6

Maqolada muallifi noma'lum "Musibatnomayi turkiy" asarining malum kompozitsiya va syujetga ega bo'lishida mavjud yozma manbalarning ta'siri bo'lganligi haqida so'z boradi. Asar kompozitsion jihatdan xarakterli xususiyatga ega ekanligi, bu xol syujetning chuqurlashuvi, voqelikning izohlab berilishi va kitobxonda ixlosning vujudga kelishida turtki bo'ladi. Asarning kompozitsiyasi uni o'qishli va uqishli bo'lishiga olib kelganligi xususida fikrlar bildiriladi.

“SHARQ YULDUZI” JURNALI 2010-YIL

1.Qozoqboy Yo'ldoshev .Mohiyatni anglatish yo'li . . Sharq yulduzi 2010\1

Maqolada milliy adabiyot ilmining bugungi darajasi tahlilda tekshirilayotgan asardagi badiiy timsollarni ijobiy va salbiy guruxlarga ajratmaslik, har bir personajga qarama-qarshi tabiatli kishilar sifatida yondoshish va baxolash lozimligi xususida so'z boradi.

2.Uzoq Jo'raqul. "Telbaga yo'qdir qalam "Sharq yulduzi 2010\1

Maqolada Shekspir qalamiga mansub asarlarda uchraydigan ,aql chegarasiga sig'maydigan telbalar, sodda – ayyorlar ,masxarabozlar obrazi ,xarakat va nutq jarayonidagi mantiqsizliklar,syujet chizig'ida kuzatiladigan favqulodiy uzilishlar goh hayrat, goh e'tiroz ,goh tushunmovchilik uyg'otishi haqida so'z boradi.

3.Ahmad Abdullayev. " She'rimda uzoq bir ishqning siri bor" Sharq yulduzi 2010\1

Maqolada o'zbek xalq shoiri Usmon Azimning she'rlarida ishq va muhabbat zamonaviy tarzda jiddiy va bardamlik uslubida ifodalanishi ,xususan, uning "Yoshlik" , " Kichkina baxt", "Sarson qushlar" she'rlarida ko'rishimiz mumkin.

4. No'mon Rahimjonov .Tanqidiy tafakkur va estetik me'zonlarning yangilanishi. Sharq yulduzi 2010\2

Bugungi kunda o'zbek badiiy so'zining milliy ruhiyati masalalari adabiy-tanqidiy tafakkur e'tiboridan chetda qolmoqda.Adabiyotimizning milliyligini o'ziga xosligining umumbashariy mohiyatini so'z san'atkorlarining onggi dunyoqarashidagi o'zgarishlar bilan badiiy- estetik izlanishlarning falsafiy mazmuni bilan muqobillikda ko'rsatish ,ahamiyatini belgilash borasida tanqidchiligimizning shashti pastligi haqida muloxazalar beriladi.

5.Abdurahim Soliyev.Satirik xarakter va mahorat. Sharq yulduzi 2010\2

Abdulla Qahhorning "Og'riq tishlar" satirik komediyasi yaratilgan davrda adabiyotimizda teatr sohasida yangi bir hodisa bo'lganidek ,shu kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.U ayrim kishilardagi mansabini suiste'mol qilish hollariga zarba berishda , ota-onalardagi yosh qizlarni balog'atga yetmasdan ,orzu-xavas deb turmushga chiqishlariga qarshi kurashda xozir ham muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida bayon qilinadi.

6.Abdulla Ulug'ov. "Hur gulsan, hayot" Sharq yulduzi 2010\2

Insonning hayoti quvonch-u tashvishlardan iborat.Buni qalbdan his qilgan iste'dodli shoira Xalima Ahmedova o'z she'rlarida insonning ko'ngil kechinmalariga murojat etadi.Shoiraning aksariyat she'rlari o'zining ma'nodorligi ,ohangdorligi,ravonligi va badiiy xususiyati jixatidan mukammal , uning she'rlari o'xshatishlarga boyligi, turli taqqoslashlarga to'laligi bilan maftun etadi.

7.Baxodir Rahmonov.Tog'lar yurtining tog'dek shoiri. Sharq yulduzi 2010\2

Rasul Xamzatov she'riyati o'z vatanini ,o'z millatini ulug'lovchi she'riyatdir.Rasul Xamzatov ayrim adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, dunyo she'riyatiga tog'lar ruhiyatini birinchilardan bo'lib olib kirdi.Bu chin ma'nodagi milliylik degani,shoir she'riyati bilan oshno bo'lgan har bir o'quvchi o'zini anglashga xarakar qiladi,xalqini o'ylashga, uning dardi bilan yashashga intiladi.

8.Olimjon Davlatov.Bir bayt sinoat Sharq yulduzi 2010\2

Uy bino aylab ajabtur elni mehmon aylamak,

Ulki bu uy ichra besh kun mehmone emas.

Alisher Navoiy she'riyatida tushunilishi oson bo'lgan bayt va g'azallar anchagina. Jumladan , yuqorida keltirilgan baytda "besh kun" va "besh emas" iboralarida so'z o'yini –tajnis o'yini qo'llanilgani bois aloxida diqqat talab qiladi.Navoiy besh kunlik dunyo haqiqatini teran anglagan , ushbu haqiqat asosida hayot kechirgan va shu sabab ikki dunyo saodatiga muyassar bo'lgan ulug' zot edi.

9.Xakimjon Karimov .Bugungi nasrning xususiyati va tamoyillari. Sharq yulduzi 2010\3

Bugungi romanlar kechagi romanlardan bir qancha xususiyati bilan keskin farq qiladi.Ya'ni odamning qalb iztiroblari,quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko'rinishlari bilan ,shuningdek voqea- xodisalar tasvirining batafsilligi hamda ularning har biri maqsad sari yo'naltirilgani haqida bayon qilinadi.Xozirgi davr adabiyotida yangicha shakllarni qo'llash,shakllantirishda turli

tajribalar qilib ko'rishga urinishlarni kuzatish mumkin. Xulosa qilganda bugungi adabiyot o'z o'zaniga tushdi, ya'ni mavzular bir xilligidan qochib, o'z nigohini keng olamga –inson qalbiga qaratdi. Ijodkor o'z asari orqali ilgari surmoqchi bo'lgan konsepsiyasini plyuralizm tamoyiliga asoslanib aks ettirishi bugungi adabiyotning bosh xususiyatidir.

10. Muqaddas Tojiboyeva . “Hayoti jovidon millat” Sharq yulduzi 2010\3

Maqolada jadid ijodkorlari Avaz O'tar, Abdulla Avloniy ijodi, hayot yo'li, haqida bayon qilinadi. Jadid ijodkorlari ijodining eng muhim xarakterli jixati shundaki, ular mumtoz adabiyotimiz tarixida yuqori bosqichni egallagan she'riy shakllar hamda g'oyaviy-badiiy an'analarni XX-asr jadid adabiyoti sharoitida davom ettirdilar xamda o'ziga xos tarzda rivojlantirdilar.

11. Sadulla Quronov. “She'riyatda geometrik izlanishlar” Sharq yulduzi 2010\3

Yangi davr adabiyoti she'riyatining tashqi qurilishi uning grafik shakli ham ahamiyatli ifoda vositasi ekanligini ko'rsatdi. Rang tasvir va she'riyatning o'zaro sintezi asosida yaratilgan “Geometrik bahor” nomli she'r ham grafik she'riyat na'munasi sifatida tasviriy san'atning ana shu yo'nalishlari kubizm bilan muqoyasa qilib o'rganilsa yaxshi natijalar berilishi haqida fikrlar beriladi.

12. Dilshoda Muborakova. Tasvir qirralari Sharq yulduzi 2010\3

Maqolada “Yangi roman” yo'nalishlarida ijod qilayotgan adiblardan biri Sunalloh Ibrohimning “Avgust yulduzi”, “Kamitet”, “Sharaf” romanlari haqida bayon qilinadi. S. Ibrohim o'z millatiga hos bo'lgan hususiyat va jihatlarni qahramonlari tabiatida ularning dunyoqarashlari harakat va o'zlarini tutish holatlarida bir-bilari bilan bo'lgan muloqotlarida ishonarli hamda jonli tasvirleydiki bu albatta asarning milliyligini ta'minlashda bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

13. Suvon Meli. Yangi tanqid Sharq yulduzi 2010\4

Ushbu maqolada g'arb adabiyotshunosligidagi bir oqim ya'ni yangi tanqid haqida so'z boradi. Maqolada bu oqim yangi tanqidning qachon, qayerda ilgari surilgan va kimlar tomonida rivojlantirilgani yoritib beriladi va yangi tanqidning yutuqlari va kamchiliklari aks ettiriladi.

14. Dilmurod Quronov. Portretidagi musavvir siyrati. Sharq yulduzi 2010\4

Ushbu maqolada taniqli tanqidchi Ozod Sharafiddinov fikrlari o'rin olgan maqolada munaqqid O.Sharafiddinov tomonidan tariflangan G'ofur G'ulom portreti xaqiqiy rassom kabi chizilgan tarzda tasvirlangan. Maqolada G'ofur G'ulom asarlari, yutuqlari bilan bir qatorda bugungi kungi kamchiliklari ham yoritib berilgan.

15. Islom Yoqubov. Adib sog'ingan manzil-mavolar. Sharq yulduzi 2010\4

Maqola Luqmon Bo'rixonning "Temir yo'l" romani taxliliga bag'ishlanadi. Luqmon Bo'rixonning ushbu romani bazi bir kamchiliklarga qaramasdan insonni tushunish, asarga tirik taqdirlarni olib kirgan, ayniqsa ayol qalbining nozik idrok eta olgan samarali izlanishlari na'munasi ekanligini ko'rsatib bergan.

16. Dilnavoz Yusupova. Furqatning "Ilmi she'r qoidai avzonini bayoni" dastxati. Sharq yulduzi 2010\4

Maqolada Navoiy qalamiga mansub "Mezon-ul avzon" asarining muxtasar asar bo'lsa ham Furqat ijodida Navoiyning ta'siri va Furqat ma'lum tarzda o'zgartirib yaratgan g'azallari haqida yozilgan. Furqatning aruz ilmini yaxshi egallagani uning "Ilmi she'r qoidai avzonini bayoni" nomli dasthati ijodkorning aruzshunos sifatidagi katta salohiyati va eng muhimi buyuk ustoz Alisher Navoiyga chuqur ehtiromini ko'satib berganligi haqida ma'lumot beriladi.

17. Nurboy Abdulhakim. "Firdavs-ul iqbol"ning adabiy estetik qiymati. Sharq yulduzi 2010\5

Ushbu maqola Munis tomonidan boshlanib Ogahiy tomonidan davom ettirilgan "Firdavs ul iqbol" asari asosida yaratilgan. Maqolada asarning yozilish sababi tarihi

keltiriladi. Asar qanday qismlardan tashkil topgani unda alohida qismni egallagan nazm va she'r bobi va asardagi murabba, masnaviy, fard, ruboiy, qit'a, tarix va boshqa janrlaridan na'munalar maqolladan o'rin olgan.

18. Gulchehra Imomova. An'analar sathidagi badiiy sintez Sharq yulduzi 2010\5

Maqolada haqiqiy inson qaysi yerda qaysi mansabda ishlashidan qat'iy nazar o'zi tug'ilib o'sgan tuproqdan oyog'ini uzmasligi, xalqning an'ana va urf-odatlaridan yiroqlashmasligi lozimligi O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz", "Charos", Nurullo Otahonovning "Dunyo keng", Shoyim Bo'tayevning "Yolg'iz bosh" hikoyalari asosida yoritib berilgan.

19. Bahodir Karimov. A'zam Shoirning o'ktam ovozi. Sharq yulduzi 2010\5

Iste'dodli shoir A'zam O'ktamning "Kuzda kulgan chechaklar", "Kuzatish", "Ziyorat", "Taraddud", "Ikki dunyo saodati", "Qirqinchi bahor" kabi she'riy to'plamlaridan misollar orqali uning jozibador she'rlari haqida ma'lumot berilgan.

20. Dildora Hoshimova. "Rosti bul erdikim mastur bo'ldi". Sharq yulduzi 2010\5

Maqolada shoir va shoh Boburning "Boburnoma" asaridagi qiyoslash orqali muallif shaxsiyati yoritilishi beriladi. Maqolada Husayn Bayqaro va Bobur shaxsiyati asosiy o'rinni egallaydi, yana o'sha davr va unday avvalgi davr shohlari qiyosi ham keltirib o'tiladi.

21. Rahmatilla Barakayev. Yosh qahramon qanday bo'lishi kerak? Sharq yulduzi 2010\6

Bugungi bolalar she'riyatining yetakchi nomoyondalaridan bo'lmish Tursunboy Adashboyev she'rlarida yosh qahramonlar obrazi alohida o'rin tutadi. Bugungi shoirlarimizning aksariyat she'rlari, qahramonlari, asosan sho'x shaddot, topqir ozgina quvrog'u ozgina soddaroq bolakaylardir. Shu yo'nalishda yosh

qahramonning o'ziga hos badiiy olamini kashf etish borasida tinimsiz intilish izlanishda ekanligi haqida bayon qilinadi.

22. Mahkam Mahmudov “Katarsis” so’zining ma’nolari tavsifi. Sharq yulduzi 2010\6

Asrlar davomida juda ko'p bahs-munozaralar Arastu kashf etgan “Mimesiz” va, xususan, “Katarsis” terminlari ustida bo'lib, bu so'zlarning talqinlari vujudga keldi. Ushbu maqolada Arastu, Robertello, Madji, Gyote, Petrovskiy, Pushkin va boshqalarning “Katarsis” terminiga bergan izohlari haqida fikr mulohazalar beriladi.

23. Shuhrat Rizo. “Qiynoq, senga bo'lsin sharaf” Sharq yulduzi 2010\6

Maqolada o'zbek xalq shoiri Usmon Azimning she'rlari, uning she'rlaridagi o'ktamlik va tetik ruh uning dramaturgiyasi, xususan, uning “Bir qadam yo'l” asari tahlil qilinadi. “Bir qadam yo'l”-umr yo'li, tug'ilmoq va o'lmoq orasi, insonning ham qavmi qalbidan joy olmog'i uchun uning ham istiqboliga tashlangan bir qadam kifoya degan fikrlar bildiriladi.

24. Zuhra Mamadaliyeva. “Lison ut-tayr” dostonida tasavvufiy obrazlar talqini. Sharq yulduzi 2010\6

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi hikoyatlarda bazi bir obrazlar muallifning tasavvufiy dunyo qarashini nomoyon etadi. Maqolada ushbu asarda uchraydigan tasavvufiy obrazlar tahlil qilinadi. Shunday obrazlardan Ishq, Oshiq va Mashuq obrazlarining tasavvufiy yo'sinda mahorat bilan tasvirlangani buyuk shoir dunyo qarashidagi yangi sahifa bo'lib hizmat qiladi.